

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA MAYDA MOTORIKA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Farg'ona viloyati Buvayda tumani 21-son DMTT direktori
Maxmudova Sayyora Yunusaliyevna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va huquqiy asoslari yoritilgan. Mayda motorikaning bolalarning nutqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinib, uni rivojlantirishning samarali usul va vositalari ko'rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические и правовые основы развития навыков мелкой моторики у воспитанников дошкольных образовательных организаций. Проанализировано значение мелкой моторики в речевом, интеллектуальном и физическом развитии детей, а также рассмотрены эффективные методы и средства её формирования.

Kalit so'zlar: mayda motorika, maktabgacha ta'lim, pedagogik yondashuv, nutq rivoji, sensor rivojlanish, barmoq mashqlari, kompetensiya, rivojlantiruvchi muhit.

Ключевые слова: мелкая моторика, дошкольное образование, педагогический подход, развитие речи, сенсорное развитие, пальчиковые упражнения, компетенция, развивающая среда.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni o'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik xujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9- sentabrdagi Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 5198-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi PQ 3305-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinadi. Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, qo'l va barmoq harakatlarini boshqarish bilan bog'liq mayda motorika ko'nikmalarining rivojlanishi bolaning keyingi ta'lim faoliyati uchun muhim omil sanaladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari mayda motorika rivoji bilan nutq faoliyati, tafakkur jarayonlari va yozuv malakalarining shakllanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Mayda motorika – bu qo‘l barmoqlari, kaft va bilak mushaklarining nozik harakatlarini bajarish qobiliyatidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘l barmoqlarining faol harakati miya po‘stlog‘idagi nutq markazlarining rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois barmoq mashqlari, konstruktiv faoliyat va taktil o‘yinlar bola nutqining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mayda motorikaning rivojlanishi bolada qo‘l-barmoq koordinatsiyasini kuchaytiradi, yozuvga tayyorlaydi hamda predmet va shakllar bilan ishlash jarayonini yengillashtiradi. Bolalarda mayda motorika rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar qatoriga taktil tajriba, barmoq mashq-lari, ko‘rish va idrok uyg‘unligi, diqqat hamda xotiraning o‘zaro bog‘liqligi, sensor muvofiqlik kiradi. Shu bois pedagog dars jarayonida oddiy motor mashqlaridan boshlab, bosqichma-bosqich murakkab konstruktiv o‘yin- larga o‘tishi lozim.

Ma‘lumki, mayda motorika – bu bolalarni qo‘l-oyoqlarining kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Mayda motorika sohasi o‘ziga xos hamiyatga ega bo‘lib u ko‘p sonli va turli xil harakatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan: oddiy harakatlardan tortib(masalan, o‘yinchoqni,har xil detallarni ushlash) murakkab harakatlargacha (yozish va rasm chizish kabi). Mayda motorikalar bola - 100 - tug‘ilgan paytidan boshlab rivojlana boshlaydi. Dastlab, go‘dak o‘z qo‘llarini o‘rganadi va asta sekin ularni boshqarishga o‘tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita(katti va ko‘rsatkich) barmog‘i bilan ularni ushlaydi. Shu orqali bolalar dastlab o‘yinchoqlar, keyin qoshiq, qalam, mo‘yqalam kabi buyumlarni tog‘ri ushlashga o‘rgatiladi. Mayda motorikaning bola organizmidagi o‘rni va ahamiyati alohida sanaladi. U bolalarni asab tizimi, ko‘rish qobiliyati, diqqat e‘tibor, xotira va idrok qilish kabi organizm xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari bolaning nutqini rivojlanishida ham mayda motorikanini ta‘siri yuqori bo‘lib, dastlab bolaning tovushlarini shakllanishiga va nutkini o‘shishiga mativatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur sohaning bola rivojlanishidagi o‘rni haqida Davlat talablarida ham alohida e‘tibor qaratilgan. Davlat talablarining 1-sohasi “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” bo‘lsa 2-qismida esa mayda motorika bo‘yicha ko‘rsatmalar asoslab o‘tilgan.Unga muvofiq, 3-4 yoshli bolalarga qo‘yiladigan talab quyidagicha: bola qo‘li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi. **Kutilayotgan natijalar:**

- bola xalqaga arqonni kirg‘izadi;
- mayda predmetlarni ma‘lum bir tartibda taxlaydi;
- mustaqil ravishda o‘yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi;
- kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o‘tkazadi;
- buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi; 2-3 obyektidan rasm tuzadi; varaq sathida to‘g‘ri chiziqlar chizadi;

➤ harflara qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni teradi;

➤ yozishga harakat qiladi. 4-5 yoshli bolalar: mustaqil tugmachalarni qadaydi va echadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rta va yirik munchoqlarni teradi;


➤ qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir biriga ulaydi;

➤ konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi;

➤ rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi;

Mayda motorika-bu qo'l-oyoqlarning kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni bajarish qobiliyati. Mayda motorika sohasi ko'p sonli turli- tuman harakatlarni o'z ichiga oladi: oddiy ishoralardan tortib (masalan, o'yinchoqni ushlab olish) to juda murakkab harakatlargacha (masalan, yozish va rasm chizish). Mayda motorika tug'ilgan paytdanoq rivojlana boshlaydi. Oldiniga o'dak o'z qo'llarini o'rganadi, keyin ularni boshqarishga o'tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katta va ko'rsatkich) barmog'i bilan oladi. So'ngra bolani qo'shiq, qalam, mo'yqalam kabi buyumlarni to'g'ri ushlashga o'rgatishadi.

Pedagogik nuqtai nazardan mayda motorikani rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:



Mayda motorikaning juda muhim xususiyati bor. U bolaning asab tizimi, ko'rish qobiliyati, diqqat- e'tibori, xotirasi va idrok qilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bolaning nutqi rivojlanishi uchun ham mayda motorikani rivojlantirish uchun mo'ljallangan mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud. Mayda motorikani rivojlantirish uchun ko'plab mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: barmoq o'yinlari, mayda buyumlar bilan bog'liq o'yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish.

Mayda motorika bolaning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi:



Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qo'l barmoqlari harakatlari bilan bosh miya faoliyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, nutq markazlari va barmoq harakatlarini boshqaruvchi markazlarning yaqin joylashganligi sababli mayda motorika mashqlari bolaning nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli logopedik va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda barmoq gimnastikasi keng qo'llaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mayda motorikani rivojlantirish uchun turli xil mashg'ulotlardan foydalaniladi. Jumladan, mozaika terish, konstruktorlar bilan ishlash, plastilin va loydan buyumlar yasash, qog'ozni buklash va qirqish, aplikatsiyalar tayyorlash, tugmalarni qadash, ip o'tkazish, barmoq o'yinlari hamda didaktik mashqlar samarali vositalar hisoblanadi. Ushbu faoliyatlar bolalarda qo'l harakatlarining aniqligi va muvofiqligini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy va nutqiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Qo'l va barmoq harakatlarini takomillashtirish orqali bolalarda diqqat, xotira, tafakkur, ijodkorlik va yozuvga tayyorgarlik kabi muhim sifatlar shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur.

Bundan tashqari, mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilib, mayda motorika ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti.
5. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
6. Altibaeva G “Maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirishga doir o‘yinlar” <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/6557>

